

TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ubaydullaeva Vasila Sadullayevna
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
ORCID: 0009-0000-4986-967X
ubaydullaevavasila3@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ta'lism sohasini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklikni tashkil qilish va uning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan. Davlat-xususiy sheriklikning nazariy jihatlari va qonunchilik hujjatlari o'rganilgan. Ta'lism tizimining rivojlanishida davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish tamoyillari o'rganilgan, uni takomillashtirish bo'yicha muallif qarashlari asoslangan.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, ta'lism xizmatlari, xususiy sherik, ta'lism sohasi, DXSH tamoyillari, kadrlar sifati.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Убайдуллаева Васила Садуллаевна
Джизакский филиал Национального университета Узбекистана

Аннотация. В статье исследуются организация и особенности государственно-частного партнерства в развитии сферы образования. Проанализированы теоретические аспекты государственно-частного партнерства и законодательные акты. Изучены принципы развития государственно-частного партнерства в системе образования, обоснованы авторские подходы к его совершенствованию.

Ключевые слова: государственно-частное партнерство, образовательные услуги, частный партнер, сфера образования, принципы ГЧП, качество кадров.

SPECIFIC FEATURES OF DEVELOPING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS IN THE EDUCATION SYSTEM

Ubaydullaeva Vasila Sadullayevna
Jizzakh branch of National University of Uzbekistan

Abstract. The article examines the organization and specific features of public-private partnerships in the development of the education sector. The theoretical aspects of public-private partnerships and relevant legislative documents have been analyzed. The principles for developing public-private partnerships in the education system have been explored, and the author's perspectives on their improvement have been substantiated.

Keywords: public-private partnership, educational services, private partner, education sector, PPP principles, quality of personnel.

Kirish.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda davlat bilan xususiy sheriklar o'rtasidagi mulkiy hamkorlikni rivojlantirish hamda ijtimoiy muammolarni joylarda bartaraf etishda xususiy sektor bilan davlat sektorini hamkorligi munosabatlari muhim o'rinni egallamoqda. Jahonda "Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda YaIM tarkibida xizmat ko'rsatish va servis sohasining ulushi 60-80%ni, ilm-fan va innovatsion faoliyatni investitsiyalashga sarflanayotgan mablag'lar YaIMga nisbatan 3,0%ni tashkil etgan holda, jami mablag'larning 2/3 qismi tadbirkorlik sohasi hissasiga to'g'ri kelmoqda va mazkur sohada davlat-xususiy sherikligi loyihalarining ulushi qariyb 65,0%ni tashkil etmoqda".³⁸ Shunga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanish uslubiyatini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda ta'lim tizimida xizmat ko'rsatishning davlat-xususiy sherikchilagini rivojlantirish ob'ektiv zaruratga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "...ta'lim muassasalarini tashkil etishda davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan keng foydalanish kerak"ligini alohida ta'kidladilar (Murojaatnoma, 2018).

Bu borada mamlakatimizda qonunchilik asoslari takomillashtirib borilmoqda, jumladan, "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida keltirilganidek, "...**davlat-xususiy sheriklik**-davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi" deb keltirilgan. Shuningdek, **davlat-xususiy sheriklik loyihasi** — iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy vazifalarni hal etishga qaratilgan, xususiy investitsiyalarni jalb etish va (yoki) ilg'or boshqaruv tajribasini joriy etish asosida amalga oshiriladigan tadbirlar majmui ekanligi qayd qilingan (Qonun, 2019).

Davlat-xususiy sherikligi – bu davlat va ijtimoiy mulk ob'yektlari hamda turli xil ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish maqsadida davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, ular o'rtasida risklarni taqsimlashga asoslangan davlat va biznes o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikdir.

Bugungi kunda DXSh imkoniyatlaridan ta'lim sohasini jadal rivojlantirishda foydalanish va uni ta'lim tizimiga moslashtirish masalasi ham o'ta dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

MDH va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ta'lim xizmatlari sifatini baholash va mazmunini shakllantirish, qo'shma ta'lim loyihalari, fan va innovatsiyalar sohasini DXSh asosida rivojlantirish bo'yicha bir qator izlanishlar olib borilgan. Shu jumladan, Korovin (2006) "DXSh – davlat va xususiy sektor o'rtasida o'rta muddatli yoki uzoq muddatli hamkorlik sifatida bo'lib, uning doirasida siyosiy vazifalar bir necha tarmoqlarning tajribasini birlashtirish hamda moliyaviy xatarlar va foydalarni taqsimlash asosida hal qilinadi" deb ta'kidlaydi.

Milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda O'zbekistonda iqtisodchi olimlardan Yusupov va Karabaev (2013) BMT taraqqiyot dasturi doirasida DXShning shakllanishi va rivojlanishining ayrim nazariy-uslubiy masalalarini tadqiq qilganlar.

Djumaniyazov (2017) esa "Davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning ayrim nazariy uslubiy masalalari"ga bag'ishlangan maqolasida "DXSh – amaldagi qonunlar doirasida davlatning uzoq muddatli strategik vazifalari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xil iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa tavakkalchiliklar, xavf-xatarlar, risklarni taqsimlash asosida xususiy sektor bilan aholi uchun o'ta ijtimoiy-iqtisodiy, kerak bo'lsa, siyosiy ahamiyatga molik ob'ektlarni qurish yoki shu asnodagi ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish uchun xususiy sektor bilan amalgaga oshiradigan tom ma'nodagi o'zaro manfaatli aloqalaridir" deb ta'riflaydi.

³⁸ <http://www.worldbank.org/eca/russian/>

Davlat-xususiy sherikchiligining rivojlanishi asosida Toxirovning (2021) ta'kidlashicha "...ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasi zamonaviylashib, turli laborotoriyalar va boshqa jihozlar bilan ta'minlanishi ortadi. O'quv muassasalarining soni ko'payishi natijasida yoshlarni ta'lim bilan (maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'limgacha) qamrab olish darajasi ortib boradi. Bulardan tashqari o'quv muassasalari o'rtasida raqobat muhiti yaratilib, ta'lim sifatini oshirish uchun zarurat paydo bo'ladi. Pirovardida inson kapitali ham zamonaviy raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanadi. Bu esa o'z navbatida, mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan kuchli omilning yuzaga kelishi uchun keng qamrovli asos bo'ladi".

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda olib borilgan tadqiqot jarayonida to'plangan ma'lumotlardan samarali foydalanish va ularni tahlil qilishda ilmiy mushohada va absrakt-mantiqiy fikrlash usullaridan keng foydalanildi. Ta'lim tizimida DXShni tashkil qilish va rivojlantirishning prinsiplari va ularning ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish natijasida bir qancha xulosalarga kelindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

DXSHning asosiy afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi: ta'lim sohasidagi imkoniyatlar, qisqa davrda ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarining mavjudligi; iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida foydalanish imkoniyatining mavjudligi; davlat obyektlariga xususiy moliyalashtirish bo'yicha ko'proq miqdorda mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari; avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash va ekspluatatsiya qilishga davlat xarajatlarini qisqarishi; xususiy mablag'lar hisobiga davlat ijtimoiy ob'yeqtalarini bunyod etishga moliyalashtirish; davlat va xususiy sub'yeqtlar o'rtasida risklarni taqsimlash; ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlanishida zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari.

1-jadval

DXShning ta'lim sohasidagi tamoyillari va yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrash mutanosibligi

DXShning ta'lim sohasidagi tamoyillari	Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrovini oshirish tamoyillari
Jamiyat talabiga mos raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash tamoyili	Oliy ta'limning moliyaviy mustaqillagini ta'minlashga qaratilgan tamoyil
Oliy ta'limning ilmiy salohiyatini muntazam oshirib borishga qaratilgan tamoyil	Oliy ta'limda qog'ozbozlikni kamaytirishga qaratilgan raqamli ta'limni joriy qilish tamoyili
Oliy ta'limga akademik va tashkiliy boshqaruv bo'yicha mustaqillik tamoyili	Ta'lim tizimi samaradorligi va xizmatlari sifatini oshirish uchun mahalliy va xorijiy sheriklarni jalb qilish tamoyili.
Davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishdagi qoidalar va tartib-taomillarning shaffofligi tamoyili	Yoshlarning iqtidorlarini oshirishda ular tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy uslublar va texnologiyalarni joriy etish tamoyili.

Mehnat bozori talablaridan kelib chiqib, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovini oshirishga manfaatdorlik prinsipi ta'lim sohasi uchun juda muhimdir. Mazkur prinsip asosan oliy ta'lim tizimiga xos bo'lgan prinsiplardan biri bo'lib, hozirgi paytda davlat siyosatining amalga oshirilishiga ta'lluqli bo'lib, 2030 yillarga borib keltirilgan DXShning asosiy prinsiplari ham ta'lim tizimiga moslashgan holda takomillashtiriladi va bugungi kunda ta'lim xizmatlari ko'rsatish samaradorligi va sifatini oshirishga qaratilgan vazifalarning bajarilishida xizmat

qiladi. DXShning ta'lim sohasidagi tamoyillari va yoshlarni oliv ta'lim bilan qamrash mutanosibligi quyidagi rasmida umumlashtirilgan (1-jadval).

Ta'lim xizmati ko'rsatish sohasida davlat va biznes o'rtaSIDAGI sheriklik munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanish hamda ularning tajribalaridan amalda foydalanish DXSh samaradorligini oshirishning muhim yo'naliShi bo'lib hisoblanadi, rivojlangan mamlakatlarda DXSh loyiHalaridan foydalanishda ta'lim tizimida eng yuqori natijalar Buyuk Britaniya, Germaniya va Italiya egallaydi.³⁹

Xulosa va takliflar.

Bizning fikrimizcha zamonaviy shart-sharoitlardan kelib chiqib, ta'lim tizimida DXSh ishtirokchilarining va DXShdan manfaatdor sub'ektlariga o'zaro bog'liqligini doimiy o'rganib borish lozim zero, ta'lim sohasiga oid DXSh bo'yicha mahalliy hokimiyat organlari, tegishli vazirligi hamda tashabbuskorlar tomonidan amalga oshirishda o'zaro manfaatdorlik va sifatli ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiq. Ta'lim tizimi samaradorligini oshirish va ta'lim xizmatlari sifatini ko'tarish uchun mahalliy sheriklar bilan birga xorijiy sheriklarni ham jalg qilib, ularga investitsiyasi bilan birga mamlakatimizda yetishmayotgan zamonaviy kadrlar ehtiyojidan kelib chiqib, ilg'or ta'lim dasturlari bilan kirib kelishga ham keng imkoniyatlar yaratilishi maqsadga muvofiq. Chunki hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda orqada qolib ketmaslik maqsadida raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun albatta zamon talabiga javob beradigan texnologiyalarni iqtisodiy-ijtimoiy hayotimizga joriy qilishga va ularni boshqarishga to'g'ri keladi. Bunday kadrlarni o'zimizda tayyor qilguncha xorijiy investorlar imkoniyatlaridan ham foydalanib turish maqsadga muvofiQdir.

Bizning fikrimizcha, ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish xususiyatlari qatoriga yana bir qancha qo'shimchalarni kiritish va DXShni amalga oshirishda ushbu qo'shimchalarni inobatga olish lozim bo'ladi:

- davlat ta'lim muassasalari va tadbirkorlik faoliyati o'rtaSIDAGI hamkorlikning asosiy yo'naliShlarini rivojlantirish, ta'limning mazmuni va sifatini shakllantirish orqali ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga erishish;

- hudududlarda o'quv muassasalari o'rtaSIDA raqobat muhiti yaratilib, ta'lim sifatini oshirish uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar vositalarini shakllantirish;

- barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash asosida fundamental va amaliy fanning innovatsion rivojlanishini ham ta'minlaydigan DXSh muhitini yaratish;

- oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini raqobatda ustunlik tomonlarini shakllantirishda real ishlab chiqarish bilan ya'ni, davlat-xususiy sektor hamkorligi, ijtimoiy sherikchilik, strategik hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish;

- oliy ta'lim muassasalariga akademik va tashkiliy-boshqaruv bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolatini berish prinsipining ham joriy qilinishi bugungi kunda ta'lim tizimda ham DXShni rivojlantirish va har tomonlama qo'llab quvvatlashga asos bo'ladi.

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib ta'kidlash lozimki, ta'lim tizimida strategik loyihalarni boshqarish va moliyalashtirish bo'yicha xususiy sektorning ishtirokini ta'minlash zamonaviy sharoitlarda alohida o'rin egallab, ta'lim tizimidagi DXSh loyiHalarini boshqarish mexanizmi davlat sektori faoliyati samaradorligini oshishi bo'yicha jiddiy sifat o'zgarishlarga shart-sharoit yaratadi.

³⁹<https://www.researchgate.net/publication/313412685> Analiz mirovogo opyta primenenia mehanizma gosudarstvenno-castnogo partnerstva

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Murojaatnoma, (2018). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oly Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018.

Djumaniyazov U.I. (2017) "Davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning ayrim nazariy-uslubiy masalalari", "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may- iyun, 9-bet.

Korovin Ye. (2006) Kreditniy risk proyektor chastno-gosudarstvennogo partnerstva i mehanizmi podderjki. Vistupleniye na kruglom stole «Federalniye instrumenti podderjki investorov» 10 oktyabrya URL: regionalistica.ru/project/investproject/fed_inst

Qonun, (2019) O'zbekiston Respublikasi 11.05.2019 Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida Qonuni. Lex.uz.

Toxirov J. (2021) Davlat-xususiy sheriklikni tashkil qilish va rivojlantirishning prinsiplari va ularning ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlari "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2164/2021 (№ 00054) <http://iqtisodiyot.tsue.uz>

Yusupov N., Karabaev F. (2013) Teoriya i praktika gosudarstvenno-chastnogo partnerstva. Uchebniy modul. Pod.redak. A.E.Shayxova Tashkent /www.undp.uz

<https://www.researchgate.net/publication/313412685> Analiz mirovogo opyta primeneniya mehanizma gosudarstvenno-castnogo partnerstva

<http://www.worldbank.org/eca/russian/>